

PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ZARURATI VA FAN-TA'LIM-ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH ASOSIDA RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASH IMKONIYATLARI

Umarova Amina Norqul qizi

“Texnologik ta’lim” yo’nalishi 2-kurs talabasi

Navoiy davlat pedagogika instituti

Ilmiy rahbar: t.f.d. (DSc), prof. D.Kamalova

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o’quvchilarni ta’limga bo’lgan qiziqishlarini orttirish, professional ta’lim tizimini rivojlantirish, fan va ta’lim ustida intiluvchan hamda izlanuvchan raqobatbardosh kadrlarni ko’paytirish va tayyorlashga qaratilgan fikr-mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so’zlar: *Harakatlar strategiyasi, mexanizmlar, kadrlar, ilm-fan, professional ta’lim, xalqaro dasturlar, integratsiya.*

Barchga ma’lumki, o’tgan 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta’lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tadbiiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali mamlakatda ta’lim tizimini isloh qilish bo’yicha izchil ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, professional ta’lim dasturlari YUNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg’unlashmaganligi, o’quv jarayoniga O’zbekistonning Milliy kvalifikatsiya tizimi to’laqonli joriy etilmaganligi tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o’rin egallashlariga to’sqinlik qilmoqda.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida raqobatbardosh, yetuk kadrlarni tayyorlash qat’iy talabga aylandi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda bu borada muayyan darajada urinishlar va sa’y-harakatlar bo’lganini tan olish lozim. O’zini oqlagan va ijobiy samara bergan usullar ham talaygina. Ammo, bugun zamon o’zgardi. Talab va takliflar, shuningdek, ehtiyojlar ham o’ta globallashtgan, kuchli raqobat muhiti yuzaga kelmoqda. Oliy ta’lim tizimidan ana shu raqobat muhitiga javob bera oladigan mutaxassislarini tayyorlash talab etilmoqda.

2019-yilning oktabr oyida O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar mazkur hujjatga asos qilib olindi.

Professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida 2020-2021 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasida Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etildi.

Yaqindagina xalqimiz bilan birgalikda o'tkazilgan katta Referendumda ovoz berish yo'li bilan qabul qilingan "Yangi Kanisitivutsiya" miz ham bizni vatanimiz ravnaqi uchun katta tayanch bo'lishi shubhasiz. Ayniqsa, "Ta'lim to'g'risida" qabul qilingan qonunlar ko'plab yoshlarimizga juda katta imkoniyatlar eshigini ochib berish uchun xizmat qiladi. Shuncha imkoniyatlarga qaramay, o'qishni davom ettirib, oliy ta'lim olishni istaydigan yoshlar har doim ham maqsadiga erishavermaydi. Oliy ta'lim muassasalarining umumta'lim maktablari bilan hamkorligini kuchaytirish yuzasidan belgilangan ishlarni davom ettirish, iqtidorli va qobiliyatli yoshlarni maktab davridan saralab olish hamda ularga to'g'ri yo'nalish, yo'l-yo'riqlarini ko'rsatib borish lozim.

Qolaversa, o'qishni davom ettirishni istagan har bir o'g'il-qiz, albatta, oliy ta'lim muassasasiga qabul qilinishi, mas'ullar ularga ana shunday sharoitlarni taqdim etishi zarur. Oxirgi 6-7 yillik tarixga nazar tashlasak, qo'llanilayotgan ta'lim tizimlari orqali yaxshigina rivojlanish kuzatishimiz mumkin, ammo, biz bu bilan cheklanib qolishimiz kerak emas. Tobora intilishimiz, yanada yuksalishimiz uchun bir joyda to'xtab qolmasdan doimo olg'a intimog'imiz, ilm cho'qqilarini zabt etmog'imiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umarova A.N., Kamalova D.I. Texnologiya fanini o'qitishning muhim jihatlari. Conference of universal science research 2023. Volume 1. Issue 10. 19 october. 2023. Tashkent. Uzbekistan. pp. 111-113.
2. Umarova A.N., Kamalova D.I. Zamonaviy texnika va texnologiyalardan samarali foydalanish. "Ijodkor o'qituvchi" ilmiy-uslubiy jurnali. №34. 5-dekabr. 2023. Toshkent
3. Doniyorbek, N. (2023). BOLALAR UCHUN ZAMONAVIY SUV MUOLAJALARI MAJMUASINI YARATISH. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 523-527.
4. Qo'ziyevich, E. I., & Elmuradovna, J. E. (2023). Qadimgi qarshi shahri arxiologik yodgorliklari arxitekturasini ilmiy tahlili. Arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnali, 2(2), 58-61.
5. Qo'ziyevich, E. I., & Elmuradovna, J. E. (2023). The scheme of territorial placement of agglomeration commercial and household complexes in Uzbekistan. Arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnali, 2(2), 62-67.

6. Maxmatqulov, I. T. (2022). Scientific analysis of the Erkurgan historical and archeological complex in Karshi district of Kashkadarya region. *Journal of Architectural Design*, 4, 27-31.

7. Elmuradovna, J. E., & Qo'ziyevich, E. I. (2023). BUXORO ARKINING ARXITEKTURAVIY SHAKLLANISHI. *ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI*, 2(2), 75-78.